


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.

S. Xodjaniyazov

2025-yil _____

**EKONOMETRIKAGA KIRISH FANI BO'YICHA
FAN DASTURI
Kunduzgi bo'lim uchun**

Bilim sohasi:	400000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	410000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60410100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va soxalar bo'yicha)

Urganch-2025

Mazkur o'quv dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil 29-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor


S.U. Xodjaniazov

O'quv-uslubiy boshqarma


boshlig'i:


G'R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti Kengashining 2025-yil 28-avgustdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (___-sonli bayonnomasi).

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

dekani:


I.S. Abdullayev

Mazkur o'quv dastur "Iqtisodiyot" kafedrasining 2025-yil 27-avgustdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (___-sonli bayonnomasi).

Iqtisodiyot

kafedra mudiri:


T.J. Raximov



Modul/Fan dasturi
Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar fakulteti

60410100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va soxalar bo'yicha)

Fan nomi:	Ekonometrikaga kirish
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	EKAB2152
Yil:	2025-2026
Semestr:	3
Ta'lim shakli:	kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	
Laboratoriya mashg'ulotlari	30
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	90
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	Imtihon (yozma)
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi (FM)

FM1	Talabalarda bozor munosabatlari sharoitimilliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlar ekonometrikani o'rgatishdan, o'rganilayotgan jarayonlarga iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullarni qo'llashni iqtisodiy dinamikani o'rganishda turli xil funktsiyalar, ekonometrik modellarni kompyuter dasturlari yordamida yechish va olingan natijalar iqtisodiy tahlil qilish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.
------------	---

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

1.	Iqtisodiyot nazariyasi (ECOTHE12)
2.	Statistika (STATIS06)
3.	Mikroiqtisodiyot (MICROE06)
4.	Makroiqtisodiyot (MACROE06)

Ta'lim natijalari (TN)

Bilimlar jihatidan:	
TN1	bozor iqtisodiyotini ishlash va rivojlanish mexanizmini, bozor iqtisodiyotining tavakkalchilik va noaniqlik elementlarga ega bo'lishini,

	<p>iqtisodiy ko'rsatkichlarning doimiy o'zgarishda bo'lishini, ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilishda axborotlardan foydalanishni, ekonometrik modellashtirish tamoyillarini, ekonometrik modellar tuzishda axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni, iqtisodiy tizimlarning faoliyat ko'rsatish samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni, raqobat va tavakkalchilik sharoitida optimal boshqaruv qaror qabul qilish usullarini bilishi kerak;</p>
	Ko'nikmalar jihatidan:
TN2	<p>murakkab iqtisodiy tizimning statistik ma'lumotlari asosida ular holatini tahlil qilish va xulosalar chiqarish, ishlab chiqarish jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida turli xil matematik funksiyalarni tuzish va ular asosida firmalar, tarmoqlar va korxonalar holatini tahlil va bashorat qilish, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida iqtisodiy tizimlar rivojlanishining ko'p variantli echimlarini olish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, zamonaviy bashoratlash usullarini bilishlari va amalda qo'llashlari bo'yicha hamda xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</p>
TN3	<p>iqtisodiy jarayonlarning murakkab tuzilishga ega ekanligi, zamonaviy bozor iqtisodiyoti faoliyat ko'rsatish mexanizmining nazariy asoslarini, iqtisodiy jarayonlarning tasodifiy xarakterga ekanligini, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika asoslarini, murakkab iqtisodiy tizimlarning ekonometrik modellarini tuzish tamoyillarini, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ekonometrik modellarni tuzishni va tahlil qilishni, ekonometrik modellarni aniq iqtisodiy tizim va jarayonlarga qo'llay olishni, makro- va mikro jarayonlarni tahlil qilish; talab va taklif funksiyalari, ular asosida bozor sig'imini hamda muvozanat baholarni hisoblash; ishlab chiqarish jarayonlarini ekonometrik tahlil qilish; ishlab chiqarish funksiyalari yordamida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar holatini tahlil qilish, ekonometrik modellashtirishda axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish, zamonaviy biznes sub'ektlarining faoliyati va unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
3-semestr	
M1	<p>Ekonometrik modellashtirish asoslari Ekonometrik modellarning axborot ta'minoti.</p>
M2	<p>Ekonometrikada ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari</p>
M3	<p>Juft korrelyatsion, regression tahlil.</p>
M4	<p>Chiziqsiz regressiya. Eng kichik kvadratlar usulining baholash xususiyatlari. Gauss-Markov teoremasi</p>

M5	<p>Ko'p omilli ekonometrik tahlil</p>
M6	<p>Ekonometrik modellarni sifatini umumiy baholash.</p>
M7	<p>Regressiya koeffitsientining va Korrelyatsiya koeffitsientining statistik axamiyati.</p>
M8	<p>Vaqtli qatorlar to'g'risida asosiy tushunchalar ,vaqtli qatorlarning additiv va multiplikativ modellari. Vaqtli qator darajasining avtokorrelyatsiyasi</p>
M9	<p>Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik model.</p>
M10	<p>Modelning keltirilgan va tarkibiy shakli ,bilvosita va ikki bosqichli eng kichik kvadratlar usuli</p>
M11	<p>Amaliy ekonometrik modellar. Ishlab chiqarish funksiyalari.</p>
M12	<p>Iqtisodiy o'sish modellari</p>
M13	<p>Iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish</p>
M14	<p>Prognozlash usullari. Trendlarni ekstrapolyatsiya usuli</p>
M15	<p>Dinamik ekonometrik modellar, ekonometrik tadqiqotlarda axborot texnologiyalari.</p>

Mashg'ulotlar shakli: Laboratoriya (L)	
3-semestr	
L1	<p>Ekonometrik modellashtirish asoslari Ekonometrik modellarning axborot ta'minoti.</p>
L2	<p>Ekonometrikada ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari</p>
L3	<p>Juft korrelyatsion, regression tahlil.</p>
L4	<p>Chiziqsiz regressiya. Eng kichik kvadratlar usulining baholash xususiyatlari. Gauss-Markov teoremasi</p>
L5	<p>Ko'p omilli ekonometrik tahlil</p>
L6	<p>Ekonometrik modellarni sifatini umumiy baholash.</p>
L7	<p>Regressiya koeffitsientining va Korrelyatsiya koeffitsientining statistik axamiyati.</p>
L8	<p>Vaqtli qatorlar to'g'risida asosiy tushunchalar ,vaqtli qatorlarning additiv va multiplikativ modellari. Vaqtli qator darajasining avtokorrelyatsiyasi</p>

L9	Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik model.
L10	Modelning keltirilgan va tarkibiy shakli ,bilvosita va ikki bosqichli eng kichik kvadratlar usuli
L11	Amaliy ekonometrik modellar.Ishlab chiqarish funksiyalari.
L12	Iqtisodiy o'sish modellari
L13	Iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish
L14	Prognozlash usullari. Trendlarni ekstrapolyatsiya usuli
L15	Dinamik ekonometrik modellar, ekonometrik tadqiqotlarda axborot texnologiyalari.

Mustaqil ta'lim (MT)	
1	Tijorat banklarining kredit portfelini ekonometrik modellashtirish
2	Xududlarda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichini ekonometrik modellashtirish.
3	Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati ko'rsatkichini ekonometrik modellashtirish.
4	Bank muassasalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish.
5	Tovar-xom ashyo birjasida narxlar kotirovkasining trend modellarini hisoblash.
6	Makroiqtisodiy indikatorlarni ishlab chiqarish funksiyalari yordamida tadqiq qilish.
7	Qurilish tashkilotlari faoliyatida tarmoqli modellashtirishdan foydalanish.
8	Ko'p omilli ekonometrik tahlilda omillarni tanlash muammosi.
9	Amaliy ekonometrik modellar.
10	Ekonometrik modellar tizimidan ishlab chiqarish sub'ektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini bashoratlashda foydalanish.
11	Ekonometrik modellar parametrlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" dan foydalanish uslubiyoti.
12	Yashil iqtisodiyotda ekonometrik modellardan foydalanish samaradorligi
13	Ekonometrik modellashtirishda qo'llaniladigan amaliy dasturlar paketlarining xususiyatlari.
14	Chiziqli va chiziqsiz ekonometrik modellarni tuzish tamoyillari.
15	Investitsion portfelni ekonometrik baholash.
16	Agrar jarayonlarni ekonometrik modellashtirish va bashoratlash.
17	Talab va taklifning ekonometrik modellarini tuzish.

18	Katta ekonometrik modellar va O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining SAM ekonometrik modeli.
19	Ekonometrik modellashtirishning zamonaviy muammolari.
20	"Ekonometrika asoslari" fanining boshqa fanlarni rivojlantirishdagi roli.
21	Juft korrelyatsion-regression tahlil modellari
22	Ekonometrik modellashtirishda statistika muammolari
23	O'zbekiston Respublikasi Yalpi ichki mahsulotini hisoblashda statistika muammolari.
24	Ekonometrikada ehtimollar nazariyasi.
25	Regreysiya koeffitsientining va korrelyatsiya koeffitsientining statistik ahamiyatini baholash usullari.
26	Ishlab chiqarish funksiyalari yordamida ekonometrik tahlil
27	O'zbekiston Respublikasi Yalpi milliy daromadini hisoblashda statistika muammolari.
28	O'zbekiston Respublikasi Yalpi ichki mahsulotini hisoblashni ekonometrik modellarini tuzish.
29	Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik modellar
30	Iqtisodiyotda ekonometrikani yutuq va kamchiliklari.
31	Ekonometrik tadqiqotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi
32	Yashil iqtisodiyot rivojlanishida ekonometrik modellardan foydalanish.

Asosiy adabiyotlar	
1	Christopher Dougherty. Introduction to Econometrics. Oxford University Press, 2011.
2	Gujarati D.N. Basic Econometrics. McGraw-Hill, 5 th edition, 2009.
3	Xodiev B.Y., Shodiev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. Iqtisodiyot, 2018.
4	A.I.Ishnazarov . Ekonometrikaga kirish o'quv qo'llanma Toshkent 2021
Qo'shimcha adabiyotlar	
1	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2021, 131-170 b.
2	Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017.- 108 b. - 270 b.
3	Abdullaev O.M., Xodiev B.Yu., Ishnazarov A.I. Ekonometrika. Uchebnik. -T.: Fan va texnologiya. 2007.
4	A.I.Ishnazarov . Ekonometrikada amaliy dasturlar majmui o'quv qo'llanma Toshkent 2021
5	James H. Stock, Mark W. Watson. Introduction to econometrics. 4 th Edition. London, Pearson Education (2020)

6	Marno Verbeek. A Guide to Modern Econometrics, 5th Edition. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, Inc., (2017)
7	Baltagi, B.H. (2021). Simple Linear Regression. In: Econometrics. Classroom Companion: Economics. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-80149-6_3
8	Greene W.H. Econometric Analysis. Prentice Hall, 2011.
9	Н.Ш. Кремера . ЭКОНОМЕТРИКА.москва 2010
10	Айвазян С.А. Прикладная статистика и основы эконометрики. Учебник. - М. ЮНИТИ, 2007.
11	Елисеева. И.И., Курьшева С.В. и др. Эконометрика: Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2007.

Internet saytlari

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.mineconomy.uz
4. www.stat.uz

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH

Nazorat turlari

Ushbu fandan talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat 7-haftasida talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida 1 marta o'tkaziladi.

1.3. Talabaning amaliy (yoki bo'lsa seminar ham) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash talabalar bilimini baholash mezonlari nazarda tutilgan mezonlar asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mashg'ulot turi	Baholashlar soni
Amaliy	2 marta
Mustaqil ta'lim	1 marta

1.4. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda 2 ta nazariy savolga yozma ish javobi bahosi (baholash mezonida nazarda tutilgan mezonlar asosida) hamda uning 1.3 da ko'zda tutilgan dars mashg'ulotlari davomida olgan baholari o'rtachasi hisoblanadi va yaxlitlanadi.

1.5. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida

(talabalar bilimini baholash mezonlarida nazarda tutilgan mezonlar) 3 ta nazariy 2 ta amaliy savol berish orqali yozma yoki og'zaki shaklda o'tkaziladi:

Yakuniy nazorat turini o'tkazish ushbu shakli kafedra tomonidan belgilangan.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

v) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;

- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;